XALQ DEPUTATLARI BANDIXON TUMANI KENGASHINING QARORI

Bandixon tumani Bektepa mahallasi mustaqillik ko`chasi 1-uy,tel.:(94) 264 19 60

2023 - yil 29 - dekabr VI-68-146-8-211-K/23 Bandixon tumani hokimligi

Surxondaryo viloyati Bandixon tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq hamda Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 22-04-13/7536-son xati va Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-81-232-8-0-K/23-sonli qarorini inobatga olib, Xalq deputatlari Bandixon tuman Kengashi

QAROR QILDI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq hamda Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 22-04-13/7536-son xati va Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 29-dekabrdagi VI-81-232-8-0-K/23 -sonli qarorini ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” Qonuniga muvofiq, Bandixon tumani mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari **56 261,8 mln.so‘m**, xarajatlari **103 135,3 mln.so‘m** prognoz qilinganligi hamda Respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **46 873,5 mln.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi ma`lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun tumanining budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tumanga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024-yil uchun tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma`lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetining tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari **916,1 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

9. 2024-yil uchun tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **391,8 mln.so‘m** miqdorida 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024-yilda Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) Quyidagi soliq turlari tuman mahalliy budjetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

- sement va ohaktoshdan tashqari, alohida noruda qurilish materiallari

bo‘yicha yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq;

- yig‘imlar;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun daromad solig‘i;

- yuridik shaxslardan olinadigan mulk solig‘i;

- aylanmadan olinadigan soliq.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- elektr stansiyalaridan boshqa to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi;

- benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning chakana sotuvi uchun aksiz solig‘i;

- davlat aktivlarini sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

d) mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib beriladi.

11. Tuman hokimining moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (K.Salimov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Jonqobilov), tuman Soliq inspeksiyasi (Sh.Jummayev) bilan birgalikda;

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar,

oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas`uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq

tushumini ta`minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e`tibor qaratsin.

12. Tuman Soliq inspeksiyasi (Sh.Jummayev) tumanlar va shaharlar Soliq inspeksiyalari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta`minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot tashviqot ishlarini olib borishga alohida e`tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq

bazasini oshirish;

Kadastr agentligining tumani bo‘limi (X.Allamuratov) bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta`minlasin.

13. Tuman Soliq inspeksiyasi (Sh.Jummayev), Kadastr agentligi tuman bo‘linmasi (X.Allamuratov) 2022-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan

soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta`minlasin.

14. Tuman Soliq inspeksiyasi (Sh.Jummayev), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish mintaqaviy inspeksiyasi hamda tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

15. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘linmasi (U.Sattarov) tuman Soliq inspeksiyasi (Sh.Jummaev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishni ta`minlasin.

16. Tuman Irrigatsiya bo‘limi (A.Maxamadiev) va tuman Soliq inspeksiyasi (Sh.Jummaev) tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste`mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste`mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e`tibor qaratilsin.

17. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (M.Ishqarayev), tuman Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (R.Qalqanov), Majburiy ijro byurosi tuman bo‘linmasi (U.Sattarov), tuman Adliya bo‘limi (R.Xurramov) hisoblangan boj, jarima va

yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

18. Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etiladigan takliflarini belgilangan muddatlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish va budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan

nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

19. Tuman hokimlikliga:

Tuman mahalliy budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirishni;

bunda, Xalq deputatlari tuman Kengashi, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimliklari huzuridagi jamoatchilik Kengashlari hamda yangi joriy etiladigan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta`minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etish;

Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta`mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta`mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma`lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish topshirilsin.

20. Tuman hokimining moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (K.Salimov), Iqtisodiy va moliya bo‘limi (I.Jonqobilov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Xalq deputatlari viloyat Kengashiga chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

21. Mazkur qaror “Yangi Bandixon” gazetasida rasmiy e`lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

22. Ushbu qaror rasmiy e`lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

23. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **A.Allamuradov**

Xalq deputatlari Bandixon tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-68-146-8-211-K/23-son qaroriga
1-ilova

Bandixon tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2024-yilgi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so'mda

T/P	Daromad turlari	Жами
I.	**Mahalliy soliqlar va yig‘imlar**	**56 261 800,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	0,0
2	Aylanmadan soliq	1 783 000,0
3	**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i jami**	19 388 800,0
4	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	12 000,0
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	0,0
6	**Aksiz solig‘i, jami**	**7 294 000,0**
	shu jumladan:	
	- - benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	7 294 000,0
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	656 000,0
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 884 000,0
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	1 756 000,0
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	17 825 000,0
11	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	50 000,0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 008 000,0
13	Davlat boji	0,0
14	Jarimalar	0,0
15	Ijara to‘lovi	100 000,0
16	Yig‘imlar	1 505 000,0
17	Boshqa tushumlar	0,0
II.	**Respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar**	**46 873 487,0**
	Daromadlar hammasi	**103 135 287,0**

Xalq deputatlari Bandixon tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-68-146-8-211-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Bandixon tumani budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan parlament ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so'm

№	Ko‘rsatkichlar	Summa
Mahalliy budjetiga ajratiladigan mablag‘lar, jami		**103 135 287,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**103 135 287,0**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tashkilotlarga**	**12 124 132,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 124 132,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Tibbiyot birlashmasi tashkilotlarga**	**41 104 448,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	41 104 448,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Madaniyat bo‘limi tashkilotlarga**	**2 925 799,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 925 799,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Yoshlar siyosati va sport bo‘limi**	**4 717 728,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 717 728,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**3 204 636,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 204 636,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Veterinariya va chorvachilik rivojlantirish bo‘limi tashkilotilari**	**1 212 145,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 212 145,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazlarining saqlash xarajatlari**	**399 775,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	399 775,0

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Irrigatsiya bo‘limi tashkilotlarga**	**3 198 402,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 198 402,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari**	**1 646 382,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 646 382,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Soliq inspeksiyasi tuman bo‘limi saqlash xarajatlari**	**2 809 560,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 809 560,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	**Davlat boshqaruv hokimligi**	**2 616 307,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 616 307,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari**	**41 471,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	41 471,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Zahira jamg‘armalari**	**916 121,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	916 121,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**10 552 808,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 552 808,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati**	**227 562,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	227 562,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	**Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi**	**2 185 857,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 185 857,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17	**Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun**	**972 286,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	972 286,0

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"**	**9 200,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 200,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19	**Ijtimoiy ko‘nikma markazi bo‘limlari**	**35 109,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	35 109,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
20	**Ichki xo'jalik avtomobil yo'llarini ta'mirlash xarajatlari**	**4 000 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 000 000,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
21	**Obodonlashtirish boshqarmasi saqlash xarajatlari**	**8 235 559,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 235 559,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Bandixon tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-68-146-8-211-K/23-son qaroriga
3-ilova

Soliqlar va yig‘imlardan Bandixon tumani mahalliy budjetiga 2024 yil uchun ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Aylanmadan soliq	Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan miqdordagi daromad solig‘i (3 111 401)	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari)	Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga sotishdan aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Yig‘imlar	Ijara to‘lovlari	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarni realizatsiya qilishdan tushadigan tushumlar	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 950, 3450 951 daromad kodi bo‘yicha) tushumlar
1	**Bandixon tumani**	**100**	**100**	**100**	**100**	**80**	**50**	**100**	**100**	**100**	**50**	**100**	**100**	**50**	**50**

Izoh * Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar, soliqsiz tushumlar hamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Bandixon tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-68-146-8-211-K/23-son qaroriga
4-ilova

2024 yil uchun Bandixon tumani budjeti daromadlar va xarajatlar prognoz ko‘rsatkichi

ming so'mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
Jami	**56 261 800**	**103 135 287**
Bandixon tumani	56 261 800	103 135 287

Xalq deputatlari Bandixon tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-68-146-8-211-K/23-son qaroriga
5-ilova

Bandixon tumani budjetiga 2024 yilda ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert miqdori

ming so'mda

Shaxar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	*shundan aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar**
JAMI	**46 873 487,0**	**14 000 874,0**
shundan		
Bandixon tumani	46 873 487,0	14 000 874,0

** Tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar.*

Xalq deputatlari Bandixon tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-68-146-8-211-K/23-son qaroriga
6-ilova

2024 yilda Bandixon tumani mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so'mda

T/r	Hudud nomi	Miqdori
Jami		**391 750,0**
	shundan	
1	Bandixon tumani	**391 750,0**